

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati (2022- yil yanvar-dekabr)

1. Yalpi ichki mahsulot

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida O'zbekiston Respublikasi YalM hajmi joriy narxlarda **888 341,7** mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan **5,7 %** ga o'sdi.

YalMning o'sishiga sanoat tarmog'i eng katta hissa qo'shgan bo'lib, u **5,2 %** ga o'sdi. Sanoat tarmog'ining o'sishi hisobiga YalMning **1,3 f.p.**ga o'sishi ta'minlandi.

Qurilish ishlari hajmining o'sishi **6,6 %** ni tashkil etdi. Qurilish tarmog'ining YalM o'sishiga ijobiy hissasi **0,4 f.p.**ni tashkil etdi.

Xizmat ko'rsatish sohasida o'sish sur'ati **8,5 %** ni tashkil etdi. Shundan savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar **9,3 %** ga, tashish va saqlash, axborot va aloqa **14,7 %** ga hamda boshqa xizmat sohalari **6,6 %** ga o'sdi. Xizmat ko'rsatish sohasining YalM o'sishiga ijobiy hissasi **3,1 f.p.**ni tashkil qildi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining o'sishi **3,6 %** ni tashkil etdi va YalM o'sishiga ijobiy hissasi **0,9 f.p.**ni tashkil etdi.

Mahsulotlarga sof soliqlar hajmi **0,8 %** ga kamaygan va uning YalM o'sishiga salbiy hissasi **-0,1 f.p.**ni tashkil etdi.

2. Sanoat mahsuloti

2022- yil yanvar-dekabr oylarida respublika korxonalarini tomonidan **551,1** trillion so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish indeksi **105,2** foizni tashkil etdi.

Shu bilan birga, sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida qayta ishlash sanoatining ulushi **83,2** foizni, - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati **9,5** foizni, elektr ta'minoti, gaz, bug' va havoni tozalash **6,8** foizni, suv ta'minoti, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va yo'q qilish **0,5** foizni ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi o'sishining asosiy omili, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining o'tgan yilning shu davriga nisbatan **5,3** foizga, shuningdek elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sanoati korxonalarida ishlab chiqarish hajmining **12,7** foizga hamda tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati korxonalarida ishlab chiqarish hajmining o'tgan yilning shu davriga nisbatan **2,1** foizga ko'payishi bo'ldi.

Shu bilan birga, suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sanoati korxonalarida ishlab chiqarish hajmining - **8,0** foizga kamayishi kuzatildi.

Avtotransport vositalari, treylarlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish (2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **139,0 %**), to'qimachilik

mahsulotlari ishlab chiqarish (**109,8** %) shuningdek metallurgiya sanoati (**103,9%**) ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Shu bilan birga, asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish hajmining o'tgan yilning shu davriga nisbatan (**90,1%**), kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish (**85,6** %), korxonalarida ishlab chiqarish hajmida pasayish kuzatildi.

Tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida xom neft va tabiiy gaz qazib olish (2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **101,0** %) va metall rudalari (**104,0** %) o'sishi kuzatilmoqda.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan iste'mol tovarlarining o'sish sur'ati **119,4** % ni tashkil etdi va sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning umumiy hajmidagi ulushi **35,9** % ga etdi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi **34,2** foizni, nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi **65,8** foizni tashkil etdi.

Shu bilan birga, 2021- yilning mos davriga kelib oziq-ovqat mahsulotlarining o'sish sur'ati **117,5** foizni, nooziq-ovqat mahsulotlari **120,4** foizni tashkil etdi.

3. Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot(xizmat)lari hajmi **364 522,8** mlrd. so'mni yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan **103,6%** ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilikda, ovchilikda va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 352 137,8 mlrd. so'mni (103,6%), o'rmon xo'jaligida – 9 223,0 mlrd. so'mni (102,3%), baliqchilik xo'jaligida – 3 162,0 mlrd. so'mni (101,9%) tashkil qildi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot(xizmat)lari hajmining oshishi, asosan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish hajmining ko'payganligi (3,6%) bilan bog'liq. Barcha toifadagi xo'jaliklarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining oshishi go'shtning – 3,4 % ga, sutning – 3,2 % ga, tuxumning – 4,4 % ga, donning – 4,7 % ga, kartoshkaning – 4,7 % ga, polizning – 5,9 % ga, meva va rezavorlarning – 4,6 % ga, uzumning – 3,9 % ga va ovlangan baliqlarning – 3,2 % ga oshishi bilan izohlanadi.

Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 62,2% - dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari, 31,4% - fermer xo'jaliklari, 6,4% - qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi xo'jaliklar hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

4. Inflyatsiya darajasi

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida respublika iste'mol sektoridagi inflyatsiya darajasi **12,3** % ni tashkil etdi.

Yil boshidan **oziq-ovqat mahsulotlari** narxlari o'rtacha **15,6** % ga qimmatlashib, inflyatsiya darajasining umumiy o'sish sur'atiga 6,60 foiz darajasida (keyingi o'rinlarda f.d.) ta'sir etdi. **Nooziq-ovqat mahsulotlari** narxlari ushbu davrda **10,7** % ga qimmatlashib umumiy ko'rsatkichning 3,73 f.d. o'sish sur'atini, **xizmatlar** esa **8,4** % ga

qimmatlashib, umumiy ko'rsatkichni qo'shimcha 1,92 f.d. o'sish sur'atini ta'minladi. Yig'ma ko'rsatkichning o'sish sur'atiga ta'siri tuzilmasida oziq-ovqat mahsulotlari hissasiga umumiy o'sish sur'atining 53,9 % i, nooziq-ovqat mahsulotlari hissasiga 30,4 % i va xizmatlar hissasiga 15,7 % i to'g'ri keldi.

Yig'ma INI o'sish sur'ati tarkibida oziq-ovqat inflyatsiyasining ta'siri yaqqol namoyon bo'ldi. Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar narxlarining **15,4 %** ga oshishi hisobiga yig'ma INI 6,14 f.d. yuqoriladi. Ular orasida donli ekinlar va yorma mahsulotlari (31,3 %), shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar (24,6 %) hamda sut mahsulotlari va tuxum (19,1 %) narxlar oshishi bo'yicha yetakchi o'rinni egalladi. Sanab o'tilgan guruhlarda narxlarning oshishi hisobiga yig'ma ko'rsatkich 4,04 f.d. yuqoriladi. Shuningdek, go'sht mahsulotlari narxlarining 10,3 % ga oshishi ham salmoqli (0,95 f.d.) ta'sir ko'rsatdi. Bundan tashqari, spirtsiz ichimliklar (13,4 %), sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar (12,9 %), baliq va boshqa dengiz mahsulotlari (12,0 %) ham sezilarli darajada qimmatlashdi. Shu bilan birga, mevalar va yong'oqlar narxlarining 2022- yil dekabdagi o'rtacha darajasi 2021- yilning yakuniga nisbatan 5,7 % ga past bo'ldi. Umuman olganda, hisob-kitoblarga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar narxlarining oshishining ta'siri ulushi yig'ma INI umumiy o'sish sur'atining 50 % idan oshdi.

Boshqa bo'limlar orasida narxlarning sezilarli oshish darajasi restoranlar va mehmonxonalar (23,6 %), sog'liqni saqlash (16,7 %), dam olish, sport va madaniyat (14,4 %) sohasidagi xizmatlar, maishiy tovarlar va xizmatlar (14,0 %) narxlarida qayd etildi. Sanab o'tilgan bo'limlarning yillik yig'ma ko'rsatkich o'sish sur'atiga jami ta'siri 2,45 f.d. ga yetdi.

5. Asosiy kapitalga investitsiyalar

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida, barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi **269 857,5** mlrd.so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **100,9** foizni tashkil etdi.

Shu bilan birga, asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar umumiy hajmida korxonalar mablag'lari hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar ulushi **31,3 %**ni, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar – **5,6%**, tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lar – **7,8%**, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar – **36,0%**, shundan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) – **13,7%**, aholi mablag'lari – **9,5%**, Respublika budjeti – **7,8%**, Taraqqiyot va rekonstruksiya jamg'armasi – **0,9%**, Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimini rivojlantirish jamg'armasi **1,1%**.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning 2021- yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlarini moliyalashtirishning asosiy manbalari: To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) – **110,7%**, korxonalar mablag'lari – **110,6%**, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar – **104,3%**, aholi mablag'lari – **103,2%**.

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha past o'sish sur'atlari: Taraqqiyot va rekonstruksiya jamg'armasi – **73,5%**, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar – **74,9 %**, Respublika budjeti – **84,4%**, Suv ta'minoti

va kanalizatsiya tizimini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari – **92,0%**, Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lar – **98,7%**.

6. Qurilish ishlari

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida **130 767,1** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati **106,6%**ni tashkil etdi. Qurilish ishlarining umumiy hajmining 37146,3 mlrd. so'm yoki 28,4% yirik korxonalar va tashkilotlar, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 68953,3 mlrd. so'm yoki 52,7 %, norasmiy sektor sub'ektlari tomonidan 24667,5 mlrd. so'm yoki 18,9% bajarildi.

7. Chakana savdo tovar aylanmasi

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **319 288,2** mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **12,3 %** ga o'sdi.

Yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi 2021-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **30,7 %** ga o'sdi, bu esa umumiy savdo hajmining **20,6 %** ulushiga to'g'ri keladi. Kichik biznes subektlarining chakana tovar aylanmasi 2021-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **8,0 %** ga ko'paydi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **79,4 %** ni, shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **8,1 %** ulush bilan **25 970,2** mlrd. so'mni tashkil etdi.

8. Tashqi savdo aylanmasi

2022- yilning yanvar-dekabr oylari yakuni bilan respublikaning tashqi savdo aylanmasi **50 008,4** mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2021- yilga nisbatan **7 837,9** mln. AQSh dollariga yoki **18,6 %** ga ko'paydi.

Jumladan, eksport hajmi **19 309,1** mln. AQSh dollariga (o'tgan yilning mos davriga nisbatan **15,9 %** ga o'sish) va import **30 699,3** mln. AQSh dollariga o'tgan yilning mos davriga nisbatan **20,4 %** ga o'sdi).

Eksport tarkibida ham o'sish kuzatildi, jumladan: Xayvonlar va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar o'tgan yilning mos davriga nisbatan - **13,9 b. (19,6** mln. AQSh doll gacha), ichimliklar va tamaki- **3,1 b. (75,0** mln. AQSh doll), turli xil tayyor buyumlar - **41,5 %** ga (**325,7** mln. AQSh doll), oziq-ovqat maxsulotlari va tirik xayvonlar-**18,9 % (259,8** mln. AQSh doll), shuningdek sanoat tovarlari **2,5 %** ga (**110,1** mln. AQSh doll).

Import tarkibida eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalar- **16,9 % (1 396,0** mln. AQSh dollar), sanoat tovarlari - **22,0 % (1 039,4** mln. AQSh doll), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash maxsulotlar- **16,0 % (583,5** mln. AQSh dollari) to'g'ri keladi.

9. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **357,6** trln. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **15,9 %** ga o'sdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishida moliyaviy xizmatlarning **29,3 %** ga (ko'rsatilgan umumiy bozor xizmatlari hajmining o'sishidagi ta'siri **6,1** punkt), transport xizmatlari **12,4 %**ga (o'sishdagi ta'siri **2,9** punkt), savdo xizmatlari **9,0 %** ga (o'sishdagi ta'siri **2,3** punkt), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **25,5 %**ga (o'sishdagi ta'siri **1,6** punkt), ta'lim sohasidagi xizmatlar **15,3 %** (o'sishdagi ta'siri **0,7** punkt), boshqa xizmatlar **17,0 %** (o'sishdagi ta'siri **0,6** punkt), yashash va ovqatlanish xizmatlari **14,7 %** (o'sishdagi ta'siri **0,4** punkt), shuningdek, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar **11,1 %**. Ularning ko'rsatilgan umumiy bozor xizmatlari hajmining o'sishidagi ta'siri **0,3** punktni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarning eng katta hajmi savdo xizmatlari (**88,9** trln.so'm, o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati **109,0 %**), transport xizmatlari (**81,0** trln.so'm, **112,4 %**) va moliyaviy xizmatlar (**80,4** trln.so'm, **129,3 %**)ga to'g'ri keladi.

10. Korxonalar va tashkilotlar soni

2023- yil 1- yanvar holatiga respublikada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) **592,4** mingtani tashkil etdi (ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar 523,6 mingta). O'tgan yilning mos davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar sonining o'sishi 12,0 foizni (jumladan, kichik korxonalar va mikrofirmalar 13,1 foiz) tashkil etdi. Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning eng yuqori o'sishi Samarqand (16,1 foiz), Qashqadaryo (15,1 foiz), Xorazm (14,9 foiz), Jizzax (13,8 foiz), Farg'ona (13,1 foiz) viloyatlari, Qoraqalpokstan Respublikada (12,5 foiz) va Toshkent shahrida (11,6 foiz) qayd etildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar sonining eng yuqori o'sishi savdo (16,4 foiz), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (15,7 foiz), axborot va aloqa (15,3 foiz), tashish va saqlash (13,2 foiz), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (11,6 foiz), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (11,2 foiz), sanoat (8,4 foiz) hamda qurilish (7,5 foiz) faoliyat turlariga to'g'ri kelgan.

2022- yil yanvar-dekabr oyida respublikada 93,6 mingta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, shundan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 90,2 mingtani tashkil etdi.

2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra respublikada xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 15 801 tani tashkil etdi. O'tgan yil bilan solishtirganda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar sonining o'sishi 18,9 % ni yoki 2 512 tani tashkil etdi. Ulardan 6 419 tasi qo'shma korxonalar va 9 382 tasi xorijiy korxonalar tashkil etgan.